

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-7]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Avazbek Yo'ldoshev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi
aayoldoshev@gmail.com

O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELEKTNI TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt texnologiyalarini tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Sun'iy intellektning davlat boshqaruvi, raqamli xizmatlar va axborot xavfsizligidagi ahamiyati, shuningdek, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar Prezident qarorlari va milliy strategiyalar asosida o'rganilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil etilgan. Maqolada sun'iy intellektidan xavfsiz va samarali foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda monitoring tizimlarini takomillashtirishga doir xulosalar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tartibga solish, huquqiy asos, axborot xavfsizligi, biometrik tizimlar, strategiya, monitoring, shaxsiy ma'lumot, normativ hujjat, xalqaro tajriba, algoritm.

Avazbek Yo'ldoshev

Lecturer at Chirchik State Pedagogical University, Researcher at Fergana State University

ORGANIZATIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS FOR REGULATING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN UZBEKISTAN

Annotatsiya: This article analyzes the organizational and legal foundations for regulating artificial intelligence (AI) technologies in the Republic of Uzbekistan. It examines the significance of AI in public administration, digital services, and information security, as well as existing normative-legal documents based on presidential decrees and national strategies. The article also provides a comparative analysis with the experiences of foreign countries. Conclusions and practical recommendations are presented regarding the safe and effective use of AI, protection of personal data, and improvement of monitoring systems.

Kalit so'zlar: artificial intelligence, regulation, legal basis, information security, biometric systems, strategy, monitoring, personal data, normative document, international experience, algorithm.

Авазбек Юлдашев

Преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета, Исследователь Ферганского государственного университета

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В данной статье проанализированы организационно-правовые основы регулирования технологий искусственного интеллекта в Республике Узбекистан. Важность ИИ в государственном управлении, цифровых услугах и информационной безопасности, а также существующие нормативные акты были изучены на основе президентских решений и национальных стратегий. Также был проведен сравнительный анализ с опытом зарубежных стран. В статье даны выводы и практические рекомендации по безопасному и эффективному использованию ИИ, защите персональных данных и совершенствованию систем мониторинга.

Ключевые слова: искусственный интеллект, регулирование, правовая основа, информационная безопасность, биометрические системы, стратегия, мониторинг, личная информация, нормативный документ, международный опыт, алгоритм.

Kirish.

Jahon miqyosida texnologik taraqqiyotning jadal sur'atlarda rivojlanishi SI texnologiyalarini samarali boshqarish va tartibga solishni talab qilmoqda. Shu sababli mamlakatimizda ushbu sohani tartibga solish uchun zarur

tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilib, huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini rivojlantirish va keng qo'llash bugungi kunning muhim dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yilda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorda: «sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy qilish, elektron davlat xizmatlarini rivojlantirish va davlat boshqaruv tizimini raqamlashtirish kabi vazifalar belgilangan» [1]. Ushbu qarorda, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida elektron davlat xizmatlarida Face-ID kabi innovatsion biometrik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan.

Shuningdek, 2024-yil 14-oktabrda qabul qilingan «Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi»da: «SI texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish, xalqaro standartlarga mos keluvchi mexanizmlarni yaratish va sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar qo'yilgan» [5]. Ushbu strategiyada O'zbekiston xalqaro standartlar va tajribalarni o'zlashtirish orqali SI texnologiyalarini yanada samarali boshqarishni rejalashtirgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha ilmiy izlanishlar so'nggi yillarda nafaqat texnologik taraqqiyotga, balki global xavfsizlik va inson huquqlari masalalariga nisbatan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu bo'limda O'zbekiston Respublikasida SI sohasini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy asarlar, xorijiy tajribalar va tadqiqotda qo'llanilgan metodologik asoslar tahlil qilinadi.

Ilmiy-nazariy jihatdan masalaga yondashishda xorijiy manbalar ham tahlil qilindi. Xususan, A.I.Shestakova o'zining «Правовое регулирование искусственного интеллекта: зарубежный опыт и перспективы» nomli monografiyasida: «sun'iy intellektning tartibga solishda AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va boshqa davlatlarda xavflarni oldindan aniqlash, algoritmik shaffoflikni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari asosiy ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotgani» [3] haqida fikr bildiradi. Bu yondashuvlar O'zbekiston uchun ayniqsa dolzarb, chunki SI texnologiyalarining huquqiy bo'shliqlari kelajakda jamiyatda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Milliy manbalar orasida A.A.Bekmurzaevning «Axborot xavfsizligi va sun'iy intellektning huquqiy tartibi» nomli asari muhim ahamiyatga ega. Muallif o'z tadqiqotida: «sun'iy intellekt algoritmari orqali to'plangan ma'lumotlarning xavfsizligi, shaxsiy axborotlar himoyasi va axborot texnologiyalari sohasida samarali nazorat mexanizmlarini ishlab chiqishning zarurligi»[4]ni asoslab beradi. Bu jihatlar bugungi kunda SI texnologiyalarini tartibga solishda fundamental masala bo'lib qolmoqda.

Amaliy jihatdan esa PQ-4996-son Prezident qarori doirasida «elektron davlat xizmatlarida masofaviy biometrik identifikatsiya tizimlarini (Face-ID) joriy qilish orqali fuqarolarning axborot xavfsizligini oshirish, texnologik xatarlarni bartaraf etish va xizmatlar tezligini oshirish»[6] bo'yicha tajriba SI texnologiyalarining real qo'llanishiga doir ilk muhim sinov loyihasidir. Bu yechim nazariy yondashuvlarning real hayotdagi ifodasi sifatida baholanishi mumkin.

O'zbekistonda SI texnologiyalarini tartibga solishga oid huquqiy adabiyotlar va amaliy hujjatlar shakllangan bo'lsa-da, ular doimiy takomillashtirib borilishga muhtoj. Ayniqsa, inson huquqlari, algoritmik javobgarlik va axborot xavfsizligiga oid normalarni kuchaytirish orqali bu sohada izchil va ishonchli huquqiy tizim barpo etish mumkin.

Muhokama va natijalar.

Bugungi kunda davlat organlari tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar SI texnologiyalarini xavfsiz va samarali qo'llash uchun sharoit yaratmoqda. Biroq, SI texnologiyalarining rivojlanish sur'ati shunday tezki, huquqiy mexanizmlar ham bu o'zgarishlarga mos ravishda muntazam yangilanib turishi kerak. Shu jihatdan xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda sun'iy intellektning tartibga solishda axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va texnologik xavfsizlik kabi jihatlar alohida e'tiborda turadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va tartibga solish borasida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur jarayon bir nechta huquqiy hujjatlar orqali muvofiqlashtirilmoqda.

2021-yilda qabul qilingan Prezident qarorida: «sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish orqali davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiyalash va fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga erishish zarurligi» [1] qayd etilgan. Shu asosda elektron davlat xizmatlarida Face-ID texnologiyasi, ya'ni masofaviy biometrik identifikatsiya tizimi joriy etildi. Bu texnologiyaning huquqiy asoslanishi orqali fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, xavfsizlikni ta'minlash va davlat xizmatlarining ochiqqligini oshirishga erishildi.

Shuningdek, «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasida: «iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamlashtirish, ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish orqali zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish» [2] vazifasi ilgari surilgan. Bu strategiyada SI texnologiyalarini qo'llash orqali davlat sektorining samaradorligini oshirish,

fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash va yangi innovatsion loyihalarga yo'l ochish maqsad qilingan.

2024-yil 14-oktabrda tasdiqlangan «Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi»da: «sun'iy intellektni boshqarish sohasida ilmiy asoslangan yondashuvlarni shakllantirish, milliy standartlar va texnik reglamentlarni ishlab chiqish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish» [5] muhim yo'nalishlar sifatida belgilandi. Bu hujjat O'zbekistonda sun'iy intellektni rivojlantirish va tartibga solishning kompleks yondashuvini taklif qilmoqda.

O'zbekistonda sun'iy intellektni huquqiy tartibga solishda hozirgacha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ijobiy samara bermiqda. Biroq mavjud qonunchilik tizimidagi belgilangan normalar hali ham global miqyosdagi xavf-xatarlarni tartibga solish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va algoritmik shaffoflikni ta'minlashda yetarli emas. Bu holat xorijiy tajribalar bilan solishtirilganda yaqqol seziladi.

A.I.Shestakova o'z tadqiqotida: «Yevropa Ittifoqi sun'iy intellektidan foydalanishda asosiy e'tiborni inson huquqlari, ma'lumotlar shaffofligi va xavf mezonlariga yo'naltirmoqda. Har bir texnologik innovatsiya maxsus baholovdan o'tadi va qonunchilik doirasida baholanadi» [3] degan xulosani bildiradi. Bu tajriba O'zbekiston uchun dolzarb, chunki SI texnologiyalarining noto'g'ri yoki nazoratsiz qo'llanilishi inson huquqlarini buzish xavfini tug'diradi.

A.A.Bekmurzaev esa: «sun'iy intellekt algoritmlarini axborot xavfsizligi kontekstida baholash zarur. Shaxsiy axborotlarning noto'g'ri ishlatilishi, tizimga noqonuniy kirishlar va texnik xatoliklar jamiyatda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin» [4] deya ta'kidlaydi. Demak, mavjud qonunchilikka axborot xavfsizligi jihatini yanada chuqurroq integratsiya qilish dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi SI sohasida bosqichma-bosqich huquqiy asoslarni shakllantirib bormoqda. Jumladan, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli Prezident qarorida: «sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish, innovatsion ishlanmalarga asoslangan tizimlarni ishlab chiqish va ularni davlat boshqaruvi hamda ijtimoiy xizmatlarda qo'llash» [1] zarurligi ta'kidlanadi. Bu qaror mamlakatda SI texnologiyalarini tatbiq etishning dastlabki me'yoriy asosini yaratdi.

Shuningdek, «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasida: «iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli transformatsiyani ta'minlash, davlat xizmatlarini optimallashtirish, sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanishni huquqiy jihatdan mustahkamlash» [2]

dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan. Strategiyada davlat boshqaruvi, ijtimoiy soha, iqtisodiy faoliyat va xizmat ko'rsatish sohalarini raqamlashtirishda SI texnologiyalarining o'rnini alohida e'tirof etilgan.

Mazkur huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan yana bir muhim manba – 2024-yil 14-oktabrda qabul qilingan «Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi» bo'lib, unda: «sun'iy intellekt sohasida ilmiy-tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, texnologik startaplarni rag'batlantirish, xalqaro standartlarga mos normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, shuningdek, kadrlar salohiyatini rivojlantirish» [5] asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Shuningdek, qarorda «maxsus nazorat va monitoring markazlarini tashkil etish orqali SI'ning ijtimoiy xavfsizlikka ta'sirini baholash»[5] nazarda tutilgan. Strategiya SI'ni faqat texnologik muammo emas, balki huquqiy va institutsional islohotlarni talab qiladigan murakkab tizim sifatida baholaydi.

Yuqoridagi asoslarga ko'ra tahlil qilish mumkinki, O'zbekistonda SI texnologiyalarini huquqiy tartibga solishda quyidagi muammolar uchramoqda:

Normativ-huquqiy hujjatlar son jihatdan yetarli bo'lsa-da, ularning sifat jihatidan takomillashtirilishi lozim;

Biometrik ma'lumotlar bilan ishlashda shaffoflik va rozilik asoslari yetarlicha tartibga solinishi zarur;

Algoritmik mas'uliyat, shaffoflik va inson nazorati mexanizmlari takomillashtirilishi kerak.

Biroq, shunga qaramay, mavjud yutuqlarni alohida e'tirof etish mumkin. Jumladan, PQ-4996-son qarori asosida joriy etilgan biometrik identifikatsiya tizimi davlat xizmatlari, bank operatsiyalari, ijtimoiy sohadagi ma'lum bir imtiyozlardan foydalanish borasida shaffoflikni taminladi, korrupsiya darajasini pasaytirdi va fuqarolarning davlat xizmatlariga bo'lgan ishonchini kuchaytirdi.

Xulosa.

Sun'iy intellekt tushunchasi inson faoliyatining ko'plab sohalarida keng qo'llanilishi natijasida iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, davlat xizmatlarini takomillashtirish, sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash, ta'lim sifatini oshirish va xizmat ko'rsatish kabi sohalarida sun'iy intellektidan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud. Ammo ushbu texnologiyalarni nazoratsiz qo'llash jamiyat hayotida turli xil axloqiy va huquqiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun SI texnologiyalarini tartibga solishda davlat tomonidan aniqlangan huquqiy asoslar va tartib-qoidalar ishlab chiqilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4996-son qarori. – Toshkent, 2021. Havola: <https://lex.uz/docs/-5297046>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son farmoni – Toshkent, 2020. Havola: <https://lex.uz/docs/-5030957>
3. A.I.Shestakova "Правовое регулирование искусственного интеллекта: зарубежный опыт и перспективы". – Moskva: Yuridicheskiy tsentr Press, 2022. – 15–38 betlar. Havola: <https://elibrary.ru/item.asp?id=49827388>
4. A.A.Bekmurzaev Axborot xavfsizligi va sun'iy intellektning huquqiy tartibi. – Toshkent: Fan, 2023. – 45–78 betlar. Havola: <https://ziyonet.uz/uz/library/axborot-huquq-kitobi>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-358-son qarori. – Toshkent, 2024. Havola: <https://lex.uz/docs/7158604>
6. Avazbek Yo'ldoshev., SUN'IY INTELLEKTNING SOHALARARO ALOQADORLIGI. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" ilmiy jurnali, Namangan 2024 y - №11 – B. 408-412.
7. Авазбек Йулдошев (2023). Значение Кластерного Подхода В Образовании. Miasto Przyszłości. Vol.31. –pp.48-50.
8. Yo'ldoshev, A. (2022). Uyg'onish davri va uchunchi renessans poydevori: vorisiylik va o'ziga xoslik. Markaziy osiyo uyg'onish davri ilm-fan va madaniyatini tadqiq etishning dolzarb muammolari xalqaro ilmiy anjumani.
9. Avazbek Abdurashid O'g'li Yo'ldoshev (2022). FAN-TA'LIM-ISHLAB CHIQRISHDA INTEGRATSIYON YONDASHUV. Academic research in educational sciences, 3 (12), 668-673.
10. G'afforova, G.G., Yo'ldoshev, A. (2022, mart). Klaster tushunchasining falsafiy tasviri. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada —Zamonaviy psixologiya va pedagogika: muammolar va yechimlar II.—Angliya (28-jild, 322-328-betlar).

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi marginallashuv haqidagi g'oyalarning ijtimoiy-madaniy mohiyati.	
H.Zaripova.....	332
O'zbekistonda sun'iy intellektni tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari.	
A.Yo'ldoshev.....	337
Bilish nazariyasida konstruktivizm muammosi.	
G.G'affarova.....	341
Favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish tizimining konseptual asoslari.	
T.Azizov.....	346
Raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning falsafiy talqini.	
A.Sherov.....	349
Globallashuv davrida milliy salomatlik siyosati va madaniy qadriyatlar integratsiyasi.	
S.Abdullayev.....	353
Sun'iy intellektning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotiga ta'siri.	
B.Davronov.....	358
Jamiyatda jinoyatlar viktimligining ma'naviy va ijtimoiy-ruhiy omillari.	
X.Toshpo'latov.....	363
Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash global miqyosida namoyon bo'lishi.	
L.Salaeva.....	366
Begonalashuvining sabablari va ijtimoiy ildizlari.	
M.Oripova.....	371
Zamonaviy jamiyatda ma'naviy qadriyatlar deformatsiyasi: sabab va oqibatlar.	
Sh.Boybekova.....	376
Abu Hanifa hayotiga falsafiy nazar: hanafiylik asoslarining ijtimoiy-falsafiy asoslari.	
F.Nizomov.....	380
Yangi O'zbekiston yoshlarining ongida mehnatning ontologik va aksiologik mohiyatining ifodalanishi: ijtimoiy-falsafiy tahlil.	
U.Artikov.....	385
Jamiyatda mas'uliyatlilik va fidoyilik fazilatlarini rivojlantirishning zamonaviy usullari.	
M.Daliyeva.....	391
Migratsiya va oila institutlari o'rtasidagi dialektik munosabatlar.	
A.Mamatqulov.....	394
Ma'naviy qashshoqlikning ijtimoiy axloqqa ta'siri.	
M.Nuriddinov.....	399
Художественная литература как фактор социально-нравственного воспитания молодежи.	
Р.Замилова, А.Парпиева.....	402
Milliy blogosfera: tushuncha, ta'rif va tasnif.	
N.Xushvaqova.....	405
Mahalliy ijro hokimiyati samaradorligini oshirishda ijtimoiy innovatsiyalarning o'rni.	
M.Yoqubov.....	409
Yoshlar dunyoqarashida vatanparvarlik tuyg'usi va hissini ro'yobga chiqarishda istiqbolli vazifalar.	
O'Xamrakulov.....	417
Механизмы социального влияния на формирование ценностных ориентиров студенческой молодежи в Узбекистане.	
Р.ЗАМИЛОВА.....	421
Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy taraqqiyot va ideal jamiyat haqidagi g'oyalarining davrga bog'liq muammolari tahlili.	
S.Xoldarov.....	425

FILOLOGIYA FANLARI

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHILOLOGICAL SCIENCES

The subtle harmonies of life: portrayals of love and loyalty in o. henry's stories.	
F.Karimova.....	429
The concept of political discourse in modern linguistics.	
Y.Sattarova.....	432
Yoshlar matbuotida maxsus jargonlarga oid terminlar (ingliz va o'zbek tillari misolida).	
L.Jo'rayeva.....	435
O'zbek tili lug'at tarkibida juft va takroriy so'zlarning o'rni hamda ahamiyati.	
M.Mamajonova.....	439